

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD – HUQUQ TIZIMI ISLOHOTLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Husanova Mahliyo Bahromovna

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sudyalar korpusini shakllantirishning yangi mexanizmlari va jinoyat-protsessual qonunchiligini liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sud-huquq islohoti, Sudyalar oliy kengashi, bir sud — bir instansiya, raqamli sudlov, Xabeas korpus, dekriminalizatsiya, shaffoflik.*

Demokratik huquqiy davlat qurishning eng muhim sharti - mustaqil va adolatli sud tizimini barpo etishdir. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan sud-huquq sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning bosh maqsadi — "Inson qadri uchun" tamoyili asosida fuqarolarning huquq va erkinliklarini real himoya qilish, sudni chinakam "adolat qo'rg'oni"ga aylantirishdir.

Sud tizimining mustaqilligini ta'minlash maqsadida yangi konstitutsiyaviy organ — O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Mazkur organ sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanib, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlov asosida tanlash, sudyalarning daxlsizligini ta'minlash va ularning professional faoliyatiga har qanday aralashuvning oldini olish vakolatiga ega. Shu bilan birga, sud tizimida "bir sud — bir instansiya" tamoyili joriy etildi. Bu yangilik sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligini ta'minlash bilan birga, fuqarolarning sarson bo'lishini oldini olib, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etdi.⁶⁸

Bugungi kunda sudyalikka nomzodlarni tayyorlashning mutlaqo shaffof va zamonaviy tizimi yo'lga qo'yilgan. Sudyalar oliy maktabi faoliyati yo'lga qo'yilishi sudyalarning nafaqat huquqiy bilimlarini, balki ularning psixologik tayyorgarligi, muloqot madaniyati va boshqaruv ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilmoqda. Sudyalarning mustaqilligini ta'minlashning muhim kafolati sifatida ularning vakolat muddati tubdan o'zgartirildi. Endilikda sudyalar dastlabki besh yillik muddatga, so'ngra navbatdagi o'n yillik muddatga, shundan so'ng lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga tayinlanadi.

Inson huquqlarini himoya qilish borasida "Xabeas korpus" instituti, ya'ni sud nazorati doirasi sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, jinoyat qonunchiligidagi bir qator jinoyat tarkiblari uchun jinoiy jazo bekor qilindi. Tadbirkorlik faoliyati

⁶⁸ <https://sud.uz/>

bilan bog'liq iqtisodiy jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari ustuvor etib belgilandi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishiga aralashganlik uchun jinoiy javobgarlik kuchaytirildi.⁶⁹

2021-yildan e'tiboran O'zbekiston sud tizimida tub burilish yasagan "bir sud — bir instansiya" tamoyili amaliyotga joriy etildi. Mazkur islohotning asosiy mazmuni sud bosqichlarini optimallashtirish va ortiqcha byurokratiyani cheklashdan iboratdir. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar darajasidagi fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat'iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda, umumyurisdiksiya sudlari tashkil etildi.

Ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish vakolati jinoyat ishlari bo'yicha sudlarga o'tkazildi. Buning o'rniga tuman (shahar) markazlarida faqat ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rishga ixtisoslashgan tumanlararo ma'muriy sudlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Sud tizimidan xalqaro standartlarga zid bo'lgan hamda sud qarorlarining barqarorligiga putur yetkazuvchi "nazorat instansiyasi" butunlay olib tashlandi. Shuningdek, Oliy sud raisi va Bosh prokurorning sud qarorlari ustidan protest keltirish huquqi bekor qilindi.

Sud tizimining demokratik qiyofasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bu — oshkoralikdir. Ochiq sud majlislarida ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishi, sud ruxsati bilan foto va video tasvirga olish huquqi qonuniy mustahkamlandi. Ilgari bu norma deklarativ xarakterda bo'lgan bo'lsa, hozirda uning aniq tartib-taomillari belgilangan. Sud majlislarini Internet tarmog'i orqali to'g'ridan-to'g'ri (onlayn) efirga uzatish tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Bu fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Sud qarorlarini elektron shaklda e'lon qilish, ishlarni ko'rish vaqti va joyi haqida masofaviy xabardor qilish tizimi (E-XSUD va boshqalar) yo'lga qo'yildi. Bu nafaqat shaffoflikni, balki odil sudlovning tezkorligini ham ta'minlaydi.⁷⁰

O'zbekiston sud tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri — sud faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish tezkorligini oshirishdir. Islohotlarning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi Farmoni sohani rivojlantirishda yangi davrni boshlab berdi.

Hozirgi kunda barcha sudlarda masofaviy ishlash imkonini beruvchi elektron sudlov tizimi to'liq yo'lga qo'yilgan. Bu tizim orqali fuqarolar va tadbirkorlar da'vo arizalarini elektron shaklda yuborishlari, davlat boji, jarima va boshqa sud xarajatlarini onlayn to'lashlari, sud majlislarining vaqti va joyi haqida masofaviy bildirishnomalar olishlari mumkin.

⁶⁹ https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati

⁷⁰ <https://billing.sud.uz/main>

Sud protsesslarida videokonferensaloqa (VKA) tizimidan foydalanish sud majlislarida ishtirok etish uchun ortiqcha vaqt va mablag' sarflanishining oldini oladi. Ishtirokchilar o'z yashash hududidan chiqmagan holda sud majlislarida qatnashishi mumkin. Bu ayniqsa jazoni ijro etish muassasalaridagi shaxslarning ishlarini ko'rishda xavfsizlik va tejamkorlikni ta'minlaydi. Faqatgina bir yil ichida 200 dan ortiq sud zallari ushbu tizim bilan jihozlandi va minglab sud majlislari masofaviy rejimda o'tkazildi. Bu orqali fuqarolarning milliardlab so'm mablag'i tejalishiga erishildi.

Sudyalar o'rtasida ishlarni taqsimlashda inson omilini cheklash maqsadida maxsus dasturiy ta'minot joriy etildi. Jumladan kelib tushgan ishlar sudyalarning ish hajmi va ixtisoslashuvidan kelib chiqib, dastur tomonidan avtomatik ravishda tasodifiy taqsimlanadi. Bu jarayon korrupsion xavflarni kamaytiradi hamda adolat va xolislik tamoyillarini mustahkamlaydi. Statistika shuni ko'rsatadiki, millionlab ishlar aynan shu tizim orqali inson aralashuvisiz taqsimlangan.

Sud qarorlarining ijrosini ta'minlashda ham raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Sud hujjatlari sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanib, darhol ijro organlariga (Majburiy ijro buyrosiga) elektron tizim orqali yuboriladi. 2020-yildan boshlab sud hujjatlarini elektron shaklda arxivlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu hujjatlarning butligini saqlash va ularni tezkor topish imkonini beradi.⁷¹

Aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga qulaylik yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan yagona interaktiv xizmatlar portali — my.sud.uz ishga tushirildi. Ushbu portal sud tizimidagi barcha raqamli xizmatlarni bitta manzilga jamlagan bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi. 2018-yildan boshlab fuqarolar da'vo arizalari va shikoyatlarni elektron shaklda yuborish, ularning ko'rib chiqilish jarayonini real vaqt rejimida (online) kuzatish imkoniga ega bo'ldilar. Portalda fuqarolar uchun arizalar va iltimosnomalarning tayyor namunalari (template.sud.uz) joylashtirilgan bo'lib, bu yuridik yordamga ehtiyojni kamaytiradi. "Kalkulyator" bo'limi orqali davlat bojini avtomatik hisoblash va to'lash imkoniyati yaratildi. 2019-yilda joriy etilgan yagona elektron to'lov tizimi billing.sud.uz sud bilan bog'liq moliyaviy amallarni tubdan soddalashtirdi. CLICK, Payme va Upay kabi mobil to'lov tizimlari orqali davlat bojlari va jarimalarni masofadan to'lash yo'lga qo'yildi.

Bankdan alohida qog'oz ko'rinishidagi tasdiqnoma talab qilinmaydi, tizim avtomatik ravishda to'lovni qayd etadi. Tizim orqali umumiy qiymati 9,8 milliard so'mdan ortiq bo'lgan 7 000 dan ziyod to'lovlar amalga oshirildi.⁷²

Sud organlari faoliyatini to'liq raqamlashtirish maqsadida "Adolat" kompleksi joriy etildi. U o'z ichiga 10 dan ortiq interaktiv xizmatlarni oladi. 2018-yildan buyon qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari muntazam e'lon qilib borilmoqda. Bugungi

⁷¹ <https://www.konstsud.uz/oz/managements/sud-tarkibi>

⁷² <https://gov.uz/oz/advice/611/document/2165>

kunga qadar 1,4 milliondan ortiq sud qarorlari ushbu bazaga joylashtirildi. Fuqarolar o'z ishlari qaysi kuni va soat nechada ko'rilishini masofadan bilib olishlari mumkin. Oliy sud rahbariyati qabuliga masofadan turib yozilish tizimi yo'lga qo'yildi.

2021-yildan boshlab sud majlislarini audio-yozuv orqali qayd etish va majlis bayonnomalarini ushbu yozuv asosida shakllantirish amaliyoti kengaytirildi. Bugungi kunda 395 ta sud zallari zamonaviy audio-yozuv uskunalari bilan jihozlangan. Bu chora sud majlislarining xolisligini ta'minlaydi va taraflarning sud bayonnomasi yuzasidan e'tirozlarini kamaytiradi.⁷³

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish jarayoni mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi.

So'nggi yillarda sudlarning mustaqilligini kuchaytirish, sudyalarning daxlsizligini ta'minlash, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini mustahkamlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, "inson qadri uchun" tamoyili asosida olib borilgan o'zgarishlar sud tizimining yanada adolatli va zamonaviy faoliyat yuritishiga xizmat qilmoqda. Elektron sud tizimining joriy etilishi, advokatlarning vakolatlari kengaytirilishi, sud qarorlarining ochiqligi va fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatlari kengaygani sud-huquq tizimining samaradorligini oshirdi.

Shuningdek, xalqaro huquqiy standartlarga mos ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning demokratik davlat sifatidagi nufuzini mustahkamlab, jamiyatda adolat va qonuniylik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham ushbu islohotlarni izchil davom ettirish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini yanada ishonchli himoya qiladigan kuchli sud tizimini shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://sud.uz/>
2. <https://gov.uz/oz/xovostuman/news/view/132020>
3. <https://gov.uz/oz/advice/611/document/2165>
4. <https://www.konstsud.uz/oz/managements/sud-tarkibi>
5. <https://billing.sud.uz/main>
6. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/habeas_corpus_uzbekistonda_inson_huquqlarining_ishonchli_kafolati

⁷³ <https://gov.uz/oz/xovostuman/news/view/132020>